

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

O‘QITISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBALAR

Xoliqova Matluba Mardon qizi

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti*

Boshlang‘ich ta’lim kafedrası assistenti

Telefon raqam: +99899773-36-01

xoliqovamatluba5@gmail.com.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda ta’lim jarayonini takomillashtirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni talab etishi, xorijiy va mahalliy tajribalar uyg‘unligini ta’minlash, zamonaviy va milliy o‘ziga xos usullarni birlashtirish o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, bu esa ta’limning sifatini oshirish va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish, ularni taqqoslash va o‘qitish jarayoniga samarali usullarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, bu orqali ta’limning sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro talablar darajasida rivojlantirishga hissa qo‘shilishi haqidagi fikrlar to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qitish usullari, pedagogik texnologiya, mahalliy va xorijiy tajribalar, ta’lim sifati, o‘quvchi, o‘qituvchi.

Аннотация. В данной статье указано, что совершенствование образовательного процесса сегодня требует внедрения современных педагогических технологий, обеспечения гармонии зарубежного и отечественного опыта, сочетания современных и отечественных специфических методов повышения эффективности учебного процесса, которые повышают качество образования и создают основу для всестороннего развития студентов, изучения зарубежного и отечественного опыта, сравнения его и разработки рекомендаций по внедрению эффективных методов в учебный процесс, тем самым повышая качество и эффективность образования, а также мнения о том, как способствовать развитию знаний и навыков молодежи на уровне международных требований.

Ключевые слова: методы обучения, педагогические технологии, отечественный и зарубежный опыт, качество образования, ученик, преподаватель.

Annotation. This article discusses the ideas that improving the educational process today requires the introduction of modern pedagogical technologies, ensuring the harmony of foreign

and local experiences, combining modern and national specific methods to increase the effectiveness of the teaching process, which in turn improves the quality of education and creates the basis for the comprehensive development of students, studying foreign and local experiences, comparing them and developing recommendations for introducing effective methods into the teaching process, thereby improving the quality and effectiveness of education, as well as contributing to the development of knowledge and skills of young people at the level of international requirements.

Key words: teaching methods, pedagogical technology, local and foreign experiences, quality of education, student, teacher.

KIRISH. Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda [1].

Zamonaviy dunyoda ta‘lim tizimi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. O‘qitish usullarini takomillashtirish, ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ilg‘or tajribalarni qo‘llash bugungi kunda ta‘lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Xorijiy davlatlarning ta‘lim sohasidagi muvaffaqiyatlari o‘quv jarayonini tashkil etishning samarali usullarini ko‘rsatib, O‘zbekiston ta‘limi uchun ham katta ahamiyatga ega. Xususan, Finlandiya, Janubiy Koreya, AQSh va boshqa mamlakatlarning tajribalari innovatsion texnologiyalar, loyihaviy o‘qitish, masofaviy ta‘lim kabi yondashuvlarning o‘qitish sifatini oshirishdagi o‘rnini namoyish etadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston ta‘lim tizimi ham o‘z milliy xususiyatlari va qadriyatlariga asoslangan holda rivojlanmoqda. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va davlat dasturlari asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali mahalliy o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan yangi usullar shakllanmoqda.

Yoshlarni mustaqil bilim olishga o‘rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki faqatgina chinakam ma‘rifatli odam inson qadrini ulug‘lashni, millat qadrini, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashashga munosib bo‘ladi. Bunda esa iqtidorli yoshlarni ma‘naviy intellektual rag‘batlantirishning ahamiyati katta [2].

O‘quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosida muhim ahamiyatga egadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘qitish usullarini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganishda ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu sohada o‘tkazilgan tahlillar o‘qitish usullarining rivojlanish tendensiyalari, ularning ta‘lim jarayoniga ta’siri va natijadorligi bo‘yicha keng qamrovli ma‘lumotlar beradi. Xorijiy adabiyotlar tahliliga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, masalan Finlandiya ta‘lim tizimi haqida

yozilgan asarlarda (Pasi Sahlbergning “Fin Lessons” kitobi) ta’limning yuqori darajasi o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltiruvchi va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi usullar bilan izohlanadi.

Xorijiy pedagoglar, jumladan, John Dewey va Vygotsky ishlarida konstruktivistik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning o‘qituvchilar bilan faol muloqotda bo‘lishi, ularning shaxsiy tajribasini hisobga olish orqali bilim olish jarayonini tashkil etish zarurligi asoslab berilgan.

Mahalliy adabiyotlar tahliliga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, mahalliy olimlar, jumladan, Q.Yo‘ldoshev., M.G‘ofurov va boshqalarning ilmiy ishlarida ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, interfaol usullar va milliy xususiyatlarga mos metodlarni joriy etishning ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda STEAM texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, jumladan, N.Bozorovning ishlari, yoshlarning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy va mahalliy tajribalar bir-birini boyituvchi o‘ziga xosliklarga ega. Xorijiy tadqiqotlar ta’limni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishni taklif qilsa, mahalliy tadqiqotlar esa milliy madaniyat va qadriyatlarni hisobga olgan holda samarador usullarni qo‘llashga urg‘u beradi. Bu yondashuvlarni uyg‘unlashtirish o‘qitish usullarini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ta’lim jarayon bo‘lib, u natija va tizimdir. Ta’lim jarayon sifatida bilimlar, ko‘nikma va malakalarning ma’lum yig‘indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o‘zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta’lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o‘zlashtirishda erishilgan natijadir [3].

Vatanimiz ta’limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko‘zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta’limning qadr-qimmatini, obro‘ va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo‘lmog‘i zarur [4].

Dunyo ta’lim makonining yuzaga kelishi faol integratsion jarayonlar, ta’limni “inson kapitali” sifatida e’tirof etilishi, ma’lumot haqidagi diplomlarning dunyo bo‘ylab tan olinishi chet el tajribasini o‘rganish jarayonini tezlashtiradi.

Jahon ta’lim tizimining ko‘p omili ko‘rinishga egaligi metablokli, makroregional va alohida davlatlardagi ta’lim tizimini tahlil etishga imkon beradi. Jahon ta’lim tizimining o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro harakati belgilariga ko‘ra regionlarni bir necha turga bo‘lish mumkin.

Birinchi turga integratsion jarayon generatorlari hisoblangan regionlar kiradi. Bunday regionga eng yorqin misol sifatida G‘arbiy Yevropani keltirish mumkin. Birlik g‘oyasi 1990-yillardan G‘arbiy Yevropa davlatlarida ta‘lim islohotlarining asosiga aylandi.

Ikkinchi turga integratsion jarayonlarga muvaffaqiyatli javob qaytarayotgan hududlar tegishli. Birinchi navbatda Lotin Amerikasi davlatlaridir. Tarixda bo‘lgani singari bugungi kunda ham Lotin Amerikasiga integratsion o‘choqlar zonasi sifatida AQSh va G‘arbiy Yevropa tomonidan ta‘sir ko‘rsatilmoqda.

Uchinchi turga ta‘lim jarayoni integratsiyasiga kam e‘tibor qaratayotgan regionlar kiradi. Mazkur guruhga Saxara janubidan boshlab Afrika davlatlarining katta qismi, janubiy va janubiy sharqiy Osiyoning qator davlatlari, Tinch va Atlantika okeani havzasidagi uncha katta bo‘lmagan orol davlatlarini kiritish mumkin [5].

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta‘limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta‘sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligining e‘tirof qilingani haqiqatdir. Shu tufayli ham rivojlangan mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta‘minlashga ajratilayotgan mablag‘ miqdori yildan yilga oshib bormoqda.

Bugungi kunda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan jiddiy islohotlar mazkur tizimni tubdan takomillashtirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirishni taqozo etmoqda.

Ta‘lim sohasidagi keng islohotlarning amalga oshirilishi zarurati shundaki, mustaqil respublikamiz jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, ilmiy-texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andozalariga mos keladigan salohiyatli kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Bugun globallashtirish jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha jabhalarda bo‘lgani kabi yoshlar siyosatini amalga oshirish, ular bilan ishlash sohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish taqozo etilmoqda. Zero, ushbu tajribalarni tahlil qilish, ulardan mamlakatimiz amaliyotida unumli foydalanish yo‘llarini o‘rgansh orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin [7].

TAHLIL VA NATIJALAR. O‘qitish usullarini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Xorijiy tajribalar

Xorijda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish orqali o‘qitish usullari samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi yondashuvlar keng qo‘llaniladi:

Finlandiya tajribasi:

- Ta‘limda amaliyotga asoslangan o‘qitish.
- O‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyiha asosidagi ta‘lim.
- Raqamli texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish.

AQSh tajribasi:

- Interfaol dars usullari (diskussiya, debatlar, guruhda ishlash).
- Online ta’lim platformalari va masofaviy ta’limni keng qo‘llash.
- Differensial o‘qitish orqali individual yondashuvni kuchaytirish.

Singapur modeli:

- STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo‘nalishlarini rivoshlantirish.
- Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga asoslangan darslar.
- O‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlariga mos o‘quv rejalarni ishlab chiqish.

2. Mahalliy tajribalar

O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qitish usullarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

- Ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish:
- Yangi o‘quv dasturlari va darsliklarni joriy qilish.
- Ta’limni xalqaro standartlarga moslashtirish.
- Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash.
- Klaster usuli va interfaol mashg‘ulotlar orqali bilimlarni mustahkamlash.
- Elektron ta’lim resurslaridan foydalanish.

3. Natijalar

- Ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim darajasini yaxshilash.
- O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- O‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda sodir bo‘layotgan demokratik o‘zgarishlar yangi jamiyat barpo etish yo‘lidan dadil yetaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, yangi ijtimoiy tuzumning maqsadi, vazifalariga mos keladigan va uni amalga oshiradigan kadrlarni tayyorlash ehtiyojidan kelib chiqib, ta’lim va tarbiya tizimini yangilash vazifasi qo‘yildi. Shu sababli ta’lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e‘lon qilindi. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash ehtiyoji ham ortib boradi. Shu sababli ta’lim va tarbiya jarayoni ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qaraladi, chunki ta’lim-tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, davlatni, shaxsni rivojlantirishni tasavvur qilib bo‘lmaydi [8].

Xorijiy pedagogik tajribaning muhim xususiyatlarini tahlil qilish, mahalliy sharoitda xorijiy pedagogik tajribani o‘rganish va undan foydalanishning aniq misollarini o‘rganish, bizning fikrimizcha, xorijiy pedagogik tajribani u yoki bu tarzda baholash jarayonida majburiy bo‘lgan qo‘shimcha, o‘ziga xos omillarni ajratib olishda uning namoyon bo‘lishiga imkon beradi [9].

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta’lim-tarbiya ishlarining yo‘lga qo‘yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o‘rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy

ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz [10].

Ta'limda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish tobora ommalashmoqda. Ta'limni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga doir tajribalar to'planmoqda va yaratilmoqda. Bugun biz yashayotgan globallashuv va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo'lidan tinimsiz va qat'iyat bilan rivojlanib borish natijasida o'z oldimizga qo'ygan istiqbolli maqsadlarga taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta'minlashga erisha olamiz [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim jarayonini takomillashtirishda texnologiyalardan samarali foydalanish va o'quvchini markazga qo'ygan yondashuv ustuvorlik kasb etadi. Interaktiv va loyiha asosidagi o'qitish o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'zbekistonda interfaol ta'lim usullarini joriy qilishga e'tibor kuchaymoqda, lekin texnologiyalarni kengroq tatbiq etishda ayrim qiyinchiliklar mavjud. An'anaviy ta'lim usullari hali ham asosiy o'rinni egallaydi, bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga to'siq bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M “ Ilm-fan innovatsion taraqqiyot asosi”, “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “O'zbekiston”, Toshkent 2022. B.224.
2. Ibraimov X., Quronov M “Steam ta'lim. (Steam education). Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish (Education of gifted children)”, Umumiy pedagogika “Sahhof”, 2023. B.103.
3. Umumiy pedagogika. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan, Toshkent 2018. B.105.
4. Abdiyeva K “Ta'lim samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish”. “Oriental art and culture” scientific-methodical journal (3) 111/2020.
5. Xodjayev B.X “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik, “Sano-standart” nashriyoti, Toshkent 2017. B.294-295.
6. O'sarov J.E., Babaxodjayeva L.G va b. “Talabalarda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari”, Pedagogik kompetentlik o'quv qo'llanma, Toshkent “MALIK PRINT CO” 2021. B.12.
7. Raximova R.B “Ta'lim darajasi samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish”, Международный научный журнал “Новости образование исследование в XXI веке” № 6(100), часты 1 январь, 2023 г. С.490.
8. Umumiy pedagogika I qism, YOSHLAR NASHRIYOTI UYI TOSHKENT 2020. B.6.

9. Isaqova D.B “Xorijiy pedagogik tajribani baholash omillari”, International Scientific and Practical Conference. <https://nuu.uz/> April 20, 2024. B.279.

10. Nomozova M.T “Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji”, Международный научный журнал “Новости образование исследование в XXI веке” № 8(100), часть 2 март, 2023 г.С.703.

11. Hasanova G.D “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish va tushunish kompetensiyasini takomillashtirish”, “Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi” in-academy.uz/index.php/si. B.11.